



КАЗАХСТАНСКИЙ НАЦИОНАЛЬНЫЙ
ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ИНУНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБАЯ



**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»
MAVZUSIDAGI II XALQARO
ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA**

TOSHKENT - 2025

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»**

**MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

TOSHKENT - 2025



Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida «Turkiy xalqlarning ma'naviy integratsiyasi: tili, adabiyoti, madaniyati» II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Maqolalarda turkiy tillarning rivoji va o'zaro o'xshashliklarini, umumiy adabiy merosimizni ilmiy asosda chuqur o'rghanish; madaniy aloqalarni zamonaviy texnologiyalar orqali kengaytirish; tarjima va adabiy almashinuv orqali xalqaro miqyosda muloqotni kuchaytirish; raqamli platformalar orqali integratsiyani amalga oshirishga oid fikrlar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha taniqli turkiyshunos olimlar, metodistlar, o'qituvchilar hamda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

G.Asilova – *pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.*

G.Norimova – *filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

Tahrir hay'ati:

S.Muhamedova, S.Qambarova, O.Turaqulova,

Y.Shirinova, M.Yo'ldosheva.

Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2025-yil 2-iyundagi 10-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.

Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.



DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025/AWDR7748

ONA TILI TA'LIMIDA SINFDAN TASHQARI ISHLAR: XORIJ TAJRIBASI**Normuminova Dilobar Nuriddinovna***Докторант базового обучения (PhD), Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы имени Алишера Навои**normominovadilobar@gmail.com**Orcid:0009-0007-7961-0707*

Annotatsiya. Ushbu maqola sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilishda xorij tajribasini o'rjanib, ona tili ta'limga tatbiq qilishga bag'ishlangan. Ona tili ta'limalda sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilishning innovatsion shaklini amaliyotda qo'llash zamonaviy ta'limning dolzARB talabidir. Maqolaning maqsadi til ta'limi rivojlangan davlatlarda sinfdan tashqari ishlarning ilg'or tajribasini o'rjanishga qaratilgan, mакtablarimizda interaktiv dasturlarni joriy etish orqali ona tili ta'limining sifatini oshirishni taklif etishdir. Taklif etilayotgan dastur o'quvchilarda XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirishga va ta'lim sifatini yaxshilashga xizmat qilishi ko'zda tutilgan.

Kalit so'zlar: sinfdan tashqari ishlar, ona tili ta'limi, xorijiy tajriba, AQSH, Finlandiya, innovatsion yondashuv.

Аннотация. Данная статья посвящена изучению и применению зарубежного опыта в организации внеклассной работы. Инновационные формы организации внеклассной работы в обучении родному языку являются актуальным требованием современного образования. Цель статьи – изучить передовой опыт внеклассной работы в странах с развитым языковым образованием и предложить внедрение интерактивных программ в школах для повышения качества обучения родному языку. Предлагаемая программа направлена на развитие у учащихся навыков XXI века и улучшение качества образования.

Ключевые слова: внеклассная работа, обучение родному языку, зарубежный опыт, США, Финляндия, инновационный подход.

Abstract. This article focuses on studying and implementing international best practices in organizing extracurricular activities. The application of innovative forms of extracurricular work in native language education is a pressing demand of modern education. The purpose of the article is to explore advanced international practices in extracurricular activities in countries with well-developed language education systems and to propose the implementation of interactive programs in schools to enhance the quality of native language instruction. The proposed program is designed to foster 21st-century skills in students and contribute to the improvement of educational quality.

Keywords: extracurricular activities, native language education, international experience, USA, Finland, innovative approach.

Hozirgi davr jadal rivojlanish, texnologik innovatsiyalar (sun'iy intellekt, robotlar, dronlar, ijtimoiy tarmoqlar, virtual dunyo) va globalizatsiya (K-pop, Hollywood, iqlim o'zgarishi, genomika) bilan ajralib turadi. Zamonaviy dunyo qulayliklari va yangi imkoniyatlар bilan birlgilikda murakkab muammolarni ham olib kelmoqda. Muvaffaqiyat qozonish va raqobatbardosh bo'lish uchun yoshlarda sun'iy intellekt (AI) asoslarini tushunish, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, xakerlikdan saqlanish, mantiqiy tahlil qilish, muammolarni noan'anaviy usullar bilan hal qilish, virtual muloqot qilish, jamoaviy loyihalarda



ishtirok etish, loyihamorlari orqali tajriba to'plash, raqamli dunyoga moslashish, ijtimoiy mas'uliyat ko'nikmalarini rivojlantirish lozim. Ona tili ta'limi jarayonida sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilish zamonaviy ta'limga eng dolzarb masalalaridan biridir.

Sinfdan tashqari ish (keyingi o'rnlarda STI) atamasiga metodistlarimiz tomonidan turli ta'riflar berilgan. Sinfdan tashqari ishlari – bu matabda darsdan tashqari vaqtida o'quvchilarning bilim va malakalarini takomillashtirish, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida tashkil etiladigan pedagogik faoliyat ekani [Jo'rayev, 2018:145], o'quvchilarning intellektual, ijodiy va ijtimoiy jihatdan rivojlanishiga yo'naltirilgan, dars dasturidan tashqarida amalga oshiriladigan tizimli jarayon ekani [Qobilova, 2020: 45], ta'lim-tarbiya jarayonini mazmunan boyitish, o'quvchilarning bilimlarini amaliyotda qo'llash imkoniyatini beruvchi faoliyat turlarini o'z ichiga olishini ta'kidlagan [Sharipov, 2021: 32].

Ushbu ta'riflarga tayangan holda shuni aytish mumkinki, sinfdan tashqari ishlari ta'lim jarayonining muhim qismi bo'lib, rasmiy o'quv dasturidan tashqari amalga oshiriladigan faoliyat hisoblanadi. Ular orqali o'quvchilar muloqot qilish, hamkorlikda ishslash, o'z bilimlarini chuqurlashtirish, yangi ko'nikmalar o'zlashtirish va hayotiy vaziyatlarda qo'llash, turli sohalarda o'z qiziqishlarini aniqlash, liderlik qilish, vaqtini to'g'ri taqsimlash va rejalashtirish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Ona tili ta'limi jarayonini sinf darslaridan tashqari qo'shimcha faoliyatlar orqali quyidagi jihatlarda yanada samarali qiladi: nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish; nutq madaniyati va kommunikatsiya ko'nikmalarini oshirish; to'g'ri va ishonarli gapirish, mantiqiy fikrlashni rivojlantirish; adabiy qiziqishlarni rag'batlantirish; ijodiy qobiliyatlarni namoyon qilish; zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashuv; jamiyatda faol ishtirok etish; kasbiy yo'nalishni belgilash individual yondashuvni ta'minlash (har bir o'quvchining qiziqishi va qobiliyatiga moslashgan sinfdan tashqari dasturlar samaradorlikni oshiradi); globalizatsiyaga qarshi turish (chet tillari va madaniyatlarning kuchli ta'siri sharoitida ona tilini saqlash va unumli ishlatish zarur); zamonaviy texnologiyalardan foydalanish (muktab gazetasi yoki veb-sayt – o'quvchilar jurnalistika, intervyyu olish ko'nikmalarini egallaydi).

Jahon miqyosida sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilish jarayonida XXI asr ko'nikmalari, xususan, 4K – *kollaboratsiya, kommunikativlik, kreativ fikrlash, kritik (tanqidiy) fikrlash, FILES – kirishuvchanlik va moslashuvchanlik* (Flexibility and Adaptability), *tashabbuskorlik va o'z-o'zini boshqarish* (Initiative and Self-Direction), *yetakchilik va mas'uliyat* (Leadership and Responsibility), *samaradorlik va javobgarlik* (Efficiency and accountability), *ijtimoiy va madaniyatlararo o'zaro ta'sir* (Social and Cross Cultural Interaction)ni rivojlantirishga oid izlanishlar olib borilmoqda.

Xorijiy tajribasini o'rganish ona tili ta'limini takomillashtirishda muhim rol o'ynaydi, chunki turli mamlakatlar ta'lim tizimlarida sinfdan tashqari ishlarni rivojlantirish bo'yicha innovatsion yondashuvlar mavjud. O'tgan asrning 70-



yillarida Amerika testlash dasturi sinfdan tashqari mashg'ulotlarning ahamiyatini tasdiqlovchi, o'quv faoliyatida erishgan yutuqlar (akademik muvaffaqiyat)ning ahamiyatini esa inkor qiluvchi tadqiqot hisobotini nashr etdi. Tadqiqotga matabni bitirganiga ikki yil bo'lgan ishtirokchilar tanlab olingan. Ulardan maktabdagi o'quv faoliyatida erishgan yutuqlari bilan keyingi hayotdagi erishgan yutuqlari o'rtasidagi bog'liqlikni tushuntirishlari so'ralgan. Natijada ularning yutuqlari o'quv, ilmiy faoliyat, test ballari va maktab baholari bilan bog'liq emasligi aniqlandi. Aksincha, ularning erishgan yutuqlari maktabdagi qo'shimcha mashg'ulotlarda foalligi bilan bog'liq edi.

AQSh maktablarida ona tili (ingliz tili) ta'limi nafaqat dars jarayonida, balki sinfdan tashqari faoliyatlar orqali ham qo'llab-quvvatlanadi. Sinfdan tashqari ishlar, jumladan, adabiyot klublari, she'riyat tanlovlari, muhokama to'garaklari va loyihalar asosida o'qish - o'quvchilarning til ko'nikmalarini, ijodiy qobiliyatlarini va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan. AQSh maktablarida faoliyat ko'rsatadigan she'riyat to'garaklari esa yosh avlodning ijodiy qobiliyatlarini namoyon etish uchun moslashgan platforma hisoblanadi. Ayniqsa, "Poetry Slam" kabi *zamonaviy she'riyat tanlovlari* o'quvchilarning nutq va ifoda uslubini takomillashtirishda muhim rol o'yndaydi. Chikago ta'lim universiteti psixologlari o'tkazgan tadqiqot shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning so'z boyligini 25–30% oshirishga yordam bergan. *Muhokama klublari* va *jamoalari* esa o'quvchilarning mantiqiy fikrlash, ishonchli nutq sozlash va tanqidiy tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. AQShda keng tarqalgan "Debate Club"lar faqatgina til o'rganish emas, balki jamoaviy ishslash, argumentatsiya qilish va dolzarb ijtimoiy mavzularda fikr almashish uchun ham ajoyib imkoniyatdir.

Jonson tadqiqotlarida "Debate klub"da qatnashgan o'quvchilarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalari boshqa o'quvchilarnikiga qaraganda 35% yuqori ekanini qayd etgan [Johnson, 2020: 45]. *Loyihalar asosidagi o'qish dasturlari* esa o'quvchilarni mustaqil tadqiqot olib borishga, ma'lumotlarni tahlil qilishga va o'z bilimlarini amaliyotda qo'llashga undaydi. Xususan, "Book Report" yoki "Literature Review" kabi loyihalar o'quvchilarning chuqur tushunish va tahlil qilish qobiliyatlarini oshiradi. Smit tadqiqotida "O'quvchilarning mustaqil tadqiqot olib borish orqali o'zlashtirgan bilimlari ancha chuqurroq va uzoq muddatli xotiraga aylanadi" deb ta'kidlagan [Smith, 2021: 234]. AQShning bu tajribasi pedagoglarimiz uchun qimmatli metodik material bo'ladi. Chunki u nafaqat til o'rganish jarayonini qiziqarli qilish, balki o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga ham hissa qo'shish imkoniyatini beradi.

Finlandiya ona tili (fin tili) ta'limalda sinfdan tashqari ishlarning innovatsion tajribasi eng ilg'or tizimlardan biridir. Ona tili ta'limalda sinfdan tashqari ishlarga o'ziga xos yondashuvni taklif etadi. Finlandiya tajribasi shuni ko'rsatib turibdiki, rejorashtirilgan va tizimli tarzda tashkil etilgan sinfdan tashqari mashg'ulotlar til o'rganish jarayonida barqaror yutuqlarga olib keladi. Bu yondashuvning asosiy qiziqarli jihat shundaki, u nafaqat an'anaviy bilimlarni mustahkamlashga, balki o'quvchilarning mustaqil tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida



e'tibor qaratadi. Fin pedagogik amaliyoti shuni isbotladiki, muntazam ravishda o'tkaziladigan va metodik jihatdan yaxshi tayyorlangan sinfdan tashqari tadbirlar: o'quvchilarning kognitiv qobiliyatlarini sezilarli darajada oshiradi; mustaqil fikrlash va tanqidiy tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantiradi; ta'lif jarayoniga bo'lgan qiziqishni ortishi bilan birga; ijtimoiy va kommunikativ ko'nikmalarning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xususan, Finlandiya maktablarida qo'llanadigan "o'qish klubı" va "adabiy diskussiya" kabi dasturlar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning faol ishtirok etadigan interaktiv mashg'ulotlar ularning nutqiy va yozma nutq ko'nikmalarini izchil rivojlantirishga yordam beradi. Finlandiya Ta'lif Nazorati Agentligining (FINEEC) 2022-yilgi hisobotida muntazam ravishda "Lukuinto" o'qish dasturida qatnashgan o'quvchilarning: o'qishni tushunish darajasi 28% ga oshgan; so'z boyligi 35% ga ko'paygan; ijodiy yozuv ko'nikmalari 22% ga yaxshilangan.

Bu modelning yana bir ustun tomoni shundaki, u har bir o'quvchining individual qobiliyatlarini hisobga olgan holda, shaxsiylashtirilgan yondashuvni qo'llaydi. Masalan, kutubxona markazidagi faoliyat har bir o'quvchining o'qish darajasiga moslashtirilgan holda amalga oshiriladi. Helsinki universitetining 2023-yilgi tadqiqotida aniqlanishicha, haftasiga 1-2 marta kutubxonada o'tkaziladigan adabiy tadbirlarda qatnashuvchilarning: nutqiy ifoda ko'nikmalari 40% ga yaxshilangan, tanqidiy fikrlash qobiliyati 33% ga oshgan, adabiyotga qiziqish darajasi 45% ga ko'tarilgan. Finlandiyalik mutaxassislarning fikricha, sinfdan tashqari faoliyatlarning samaradorligi ularning quyidagi jihatlariga bog'liq: dasturlarning tizimli va uzlusizligi, o'qituvchilarning malakali metodik yondashuvi, zamonaliviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish, o'quvchilarning shaxsiy qiziqishlarini hisobga olish. *Raqamlı hikoya qılış loyihaları* orqali o'quvchilar multimedia vositalari yordamida ijod qiladilar. Helsinki Universiteti tadqiqotchilari bu usul o'quvchilarning ijodiy yozuv ko'nikmalarini 40% oshirganini aniqladilar.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, sinfdan tashqari faoliyat – pedagogik samaradorlikni oshirishning muhim omilidir. Xorijiy mamlakatlarning sinfdan tashqari ishlar bo'yicha boy tajribasini o'rganish va uni pedagogikamizda qo'llash orqali ona tili ta'limi sifatini yangi bosqichga ko'tarish mumkin. Bu nafaqat o'quvchilarning bilim darajasini oshirishga, balki ularning shaxsiy rivojlanishiga ham hissa qo'shadi.

Adabiyotlar:

1. Jo'rayev R. Pedagogika va innovatsion ta'lif texnologiyalari. – Toshkent: O'qituvchi, 2018. – 145 b.
2. Johnson D, Johnson R.T. Debate in the Classroom. Educational Psychology Review 32(3), 2020. – P. 45–67.
3. Qobilova N. Zamonaliviy ta'lilda sinfdan tashqari ishlarning ahamiyati. Pedagogik tadqiqotlar ilmiy jurnali, №3, 2020. – 45–49-b.
4. Smith A. Project-Based Learning in Language Arts. Harvard Education Review, 91(2), 2021. –P. 234–256



5. University of Helsinki. The Impact of Library-Based Learning on Language Skills. Journal of Finnish Studies, 15(2), 2023. – P. 112–30.
6. University of Chicago. The Impact of Poetry on Language Development. 2020.
7. Sharipov Sh. Sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish metodikasi // Ta'lim va tarbiya. №5, 2021. – 32–36-b.

SINTAKSISNI O'QITISHDA BOSQICHLI TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISH

Rahmonova Dinora Nu'mon qizi

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
magistranti
rahmonovadinora@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'quvchilarga sintaksis bo'yicha bilim berish jarayonida bosqichli topshiriqlardan foydalanishning metodik asoslari yoritilgan. Sintaksisning nazariy jihatlarini o'zlashtirishda hamda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda bosqichma-bosqich yondashuvning ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, amaliy darslar uchun namunaviy topshiriqlar ham taklif etilgan. Maqolada sintaksis bo'limini o'qitishning zamonaviy va samarali usullari sifatida blum taksanomiyasi asosida bosqichli topshiriqlardan foydalanish metodikasi asoslab berilgan. Shuningdek, sintaksis, ayniqsa, murakkab gaplar, ergash gaplar, bog'lovchilar tizimi kabi mavzular o'quvchilar uchun tushunish qiyin bo'lgan, abstrakt tushunchalarga boyligi, ular til birliklari orasidagi munosabatni chuqur tahlil qilishni talab qiladi. Bu esa o'qituvchi tomonidan sodda, mantiqli va bosqichma-bosqich tushuntirishni zarur qiladi. Bosqichli topshiriqlar ushbu muammolarni hal etishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: sintaksis, o'qitish metodikasi, blum taksanomiyasi, kreativlik, kognitiv bilim, mini-matn.

Аннотация. В статье рассматриваются методические основы использования пошаговых заданий при обучении студентов синтаксису, анализируется важность пошагового подхода в освоении теоретических аспектов синтаксиса и формировании практических навыков. Также предложены примеры заданий для практических занятий. В статье обосновывается методика использования пошаговых заданий на основе таксономии Блума как современный и эффективный метод обучения разделу синтаксиса. Кроме того, синтаксис, особенно такие темы, как сложные предложения, придаточные предложения и система союзов, труден для понимания учащихся, насыщен абстрактными понятиями и требует глубокого анализа взаимосвязей между языковыми единицами. Это требует простых, логичных и пошаговых объяснений со стороны учителя. Пошаговые задания помогают решить эти проблемы.

Ключевые слова: синтаксис, методика обучения, таксономия Блума, креативность, когнитивные знания, мини-текст.

Abstract. This article discusses the methodological foundations of using step-by-step tasks in teaching students about syntax. The importance of a step-by-step approach in mastering the theoretical aspects of syntax and in the formation of practical skills is analyzed. Also, sample tasks for practical lessons are proposed. The article justifies the methodology of using step-by-step tasks based on Bloom's taxonomy as a modern and effective method of teaching the syntax section. Also, syntax, especially such topics as complex sentences, subordinate clauses, and the system of conjunctions, is difficult for students to understand, is rich in abstract concepts, and requires a deep analysis of the relationship between language units. This requires a simple, logical, and step-by-step explanation by the teacher. Step-by-step tasks help to solve these problems.



| | |
|---|-----|
| Navruzova Xosiyat Izzatullo qizi. <i>ILMIY-OMMABOP USLUBIDAGI MATNNI TUSHUNISHDA LINGVISTIK BILIMNING O'RNI</i> | 701 |
| <i>Odiljonova Nilufar Abduvahob qizi. O'ZBEK TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O'QITISHDA TINGLAB TUSHUNISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH (A1 VA A2 DARAJALAR MISOLIDA) РАЗВИТИЕ КОМПЕТЕНЦИИ АУДИРОВАНИЯ В ПРОЦЕССЕ</i> | 706 |
| <i>Normuminova Dilobar Nuriddinovna. ONA TILI TA'LIMIDA SINFDAN TASHQARI ISHLAR: XORIJ TAJRIBASI</i> | 712 |
| <i>Rahmonova Dinora Nu'mon qizi. SINTAKSISNI O'QITISHDA BOSQICHLI TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISH</i> | 716 |
| <i>Rasulova Mushtariybonu Ahmadjon qizi. ONA TILI TA'LIMIDA O'QUVCHILARNING O'QISH SAVODXONLIGI KO'NIKMALARINI BAHOLOVCHI TOPSHIRIQLAR METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH</i> | 721 |
| <i>Saparova Saodat Ataxan qizi. ONA TILI DARSALARIDA ANIMATSIYADAN FOYDALANISH</i> | 727 |
| <i>Sarimsakova Nigora Raxmatovna. TALABALARDA ILMIY-OMMABOP MATN YARATISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH</i> | 731 |
| <i>Seytaliyeva Nodiraxon. TURKIY TILLAR TARAQQIYOTI VA ZAMONAVIY LINGVODIDAKTIKA MASALALARI</i> | 735 |
| <i>Tog'onova Gulshirin Oltiboyevna. ONA TILI DARSALARIDA O'QUVSHILARINING O'QIB TUSHUNISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH USULLARI</i> | 742 |
| <i>Tursun Shokirjon Alisher o'g'li. OLIY TA'LIMDA "TIL O'RGANISH VA TIL O'ZLASHTIRISH" MAVZUSINI O'QITISH YUZASIDAN METODIK TAVSIYALAR</i> | 747 |
| <i>Turg'unova Nilufar Muxiddin qizi. 8-SINF ONA TILI DARSALARIDA O'QUV LOYIHALARI BILAN ISHLASH MAZMUNI</i> | 752 |
| <i>To'rayeva Shaxnoza Baxodirovna. ASSOTSIATIV USUL ORQALI IMLO SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH</i> | 756 |
| <i>Umarova Iroda Shavkatjon qizi. TIL TA'LIMIDA SUN'iy INTELLEKT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR INTEGRATSIYASI: NAZARIY ASOSLAR, METODIK YONDASHUVLAR VA AMALIY TAVSIYALAR</i> | 762 |
| <i>Umurzakova Zuxraxon Yusupjon qizi. ONA TILI DARSLARI UCHUN RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA O'QUV TOPSHIRIQLARINI YARATISH</i> | 767 |
| <i>Usmonova Yulduz Faxriddin qizi. HAMKORLIK TEXNOLOGIYASINI SHAKLLANTIRISHGA OID YONDASHUVLAR</i> | 774 |
| <i>Muhamedova Saodat Xudoyberdiyevna, Shirinova Yekaterina Turakulovna. TIL TA'LIMIDA PRAGMATIK YONADASHUVNING AHAMIYATI</i> | 780 |
| <i>Xaydarova Madinaxon Umidjonovna. SINERGETIK YONDASHUV ASOSIDA LINGVISTIK KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH</i> | 785 |
| <i>Feruza G'aybulloyeva. ONA TILI TA'LIMIDA O'QUVCHILAR OG'ZAKI</i> | 790 |

